

UDK: 811.512.133'28

TILDAGI LEKSIK BO'SHLIQLARNI TO'LDIRISH USULLARI

Hasanov Abdumannon Majidovich,

O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti doktoranti, Filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Tel: 94 416-88-04, e-mail: abdumannon293167@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek adabiy tilidagi leksik bo'shliqlarni to'ldirish usullari haqida bahs yuritiladi. Bugungi kunda shevalarda, so'zlashuvda va muayyan nutqiy vaziyatlarda qo'llanilayotgan yangi so'zlarning tildagi tegishli tushunchalarni nomlash borasidagi imkoniyatlari tahlilga tortilgan bu maqolada tilning tadrijiy taraqqiyotida uning ichki imkoniyatlariga asoslanish lozimligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: leksika, leksik bo'shliq, tushunchani nomlash, nomsiz tushuncha, nominatsiya, leksik bo'shliqni to'ldirish, derivatsiya, kompozitsion so'z yasalishi, leksik taraqqiyot, til taraqqiyoti.

МЕТОДЫ ЗАПОЛНЕНИЯ ЛЕКСИЧЕСКИХ ПРОБЕЛОВ В ЯЗЫКЕ

Хасанов Абдуманнон Маджидович,

Докторант АН Уз Институт узбекского языка,
литературы и фольклора, кандидат филологических наук (PhD).

Телефон: 94 416-88-04, e-mail: abdumannon293167@mail.ru

Абстрактный. В данной статье рассматриваются способы заполнения лексических пробелов в узбекском литературном языке. В данной статье, в

которой анализируются возможности новых слов, используемых сегодня в диалектах, просторечиях и конкретных речевых ситуациях, для обозначения безымянных понятий в языке, подчеркивается необходимость основывать внутренние возможности языка на постепенном развитии языка.

Ключевые слова: лексика, лексический пробел, наименование понятия, безымянное понятие, номинация, заполнение лексического пробела, деривация, сложное словообразование, лексическое развитие, языковое развитие.

METHODS OF FILLING IN LEXICAL GAP IN LANGUAGE

Khasanov Abdumannon Majidovich,

Doctorant of the Academy of Sciences of Uzbekistan Institute of the Uzbek language, literature and folklore, candidate of philological sciences (PhD).

Phone: 94 416-88-04, e-mail: abdumannon293167@mail.ru

Abstract. This article discusses ways to fill lexical gaps in the Uzbek literary language. This article, which analyzes the possibilities of new words used today in dialects, vernaculars and specific speech situations, to denote unnamed concepts in the language, emphasizes the need to base the internal possibilities of the language on the gradual development of the language.

Key words: vocabulary, lexical gap, concept name, nameless concept, nomination, lexical gap filling, derivation, complex word formation, lexical development, language development.

Kirish

Til leksikasining boyishida til sohibi bo'lgan millatning lisoniy faoliyati muhim omil hisoblanadi. "Tildagi leksemalar miqdori nutqiy hosilalarda, ya'ni

soʻz va soʻz birikmalarida yaxlitlanish, adabiy tilamalashish, ixtisoslashish roʻy berishi natijasida doimo koʻpayib boradi” [5, 54]. Nutqiy hosilalarning til birligiga aylanishi, albatta, ularni qoʻllash bilan bogʻliq jarayonlarga va lisoniy ehtiyojlarga bogʻliq.

Tilni qoʻllash bilan bogʻliq jarayonlarda – nutq vaziyatida muayyan fikrni toʻkis ifodalash uchun ayrim hollarda shunday lingvistik birliklarga ehtiyoj tugʻiladiki, bu birliklar hali tilda shakllanmagan boʻladi. Bunday boʻshliqlarni toʻldirish tilning ifoda imkoniyatlarini toʻkislashtirish uchun juda ahamiyatli. Shu bois til egalari, ayniqsa ziyolilar leksik sathdagi boʻshliqlarni ilgʻagach, ularni imkon boricha tilning ichki imkoniyatlari asosida toʻldirishga harakat qiladi. Aslida, mazkur harakatlar tilshunos, lugʻatshunoslar tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Chunki tilning ichki imkoniyatlari, leksik taraqqiyot qonuniyatlari va boshqa xususiyatlari haqida yetarlicha bilimga ega boʻlgan kishi bu borada oʻrinli va joʻyali takliflar berishi mumkin.

Biroq til ijtimoiy hodisa ekan, u jamiyatning har bir aʼzosi mulki sifatida har bir til sohibi tomonidan rivojlantirilishi, takomillashtirilishi mumkin. Mazkur urinishlarning qay biridir tilga “yuqadi”, qaysilaridir izsiz yoʻqoladi. Bu faqat vaqt hukmida. Lekin shuni ishonch bilan aytish mumkinki, tilning yaratuvchisi boʻlgan jamoaning tilni rivojlantirish borasidagi saʼy-harakatlari tilning ifoda imkoniyatlarini toʻkislashtirish ehtiyojiga hamohang boʻladi va bu jihat adabiy til leksikasini toʻldirishda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa soʻzlashuvda va yoki muayyan kichik hududda (dialektda) tarqalgan lisoniy birlik tegishli leksik boʻshliqning toʻldirilishiga xizmat qilsa, shu lisoniy birlikning xususiyatlariga, imkoniyatlariga eʼtibor qaratish foydadan holi emas. adabiy til deb nomlanuvchi tilning ustqurma, oliy shakli uchun biroz begona boʻlgan ayrim birliklar (xususan, boshqa til elementlari, neologizmlar) undagi tegishli boʻshliqni toʻldirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻlishi mumkin. Shularni hisobga olgan holda til leksikasidagi boʻshliqlarni toʻldirishda tilning ichki imkoniyatlari sifatida soʻzlashuv va shevaga xos soʻzlardan unumli foydalanish lozim. Shuning barobarida, til egalari maʼlum boʻlgan soʻz yasash qoliplari orqali tegishli leksik

bo'shliqqa munosib yangi so'z yasash ham bu borada ancha samarali usullardan hisoblanadi. Shuningdek, muayyan ijodkor (shaxs) tomonidan yasalgan va qo'llanilayotgan ayrim okkozionalizm, potensializmlarga ham diqqat qaratish orqali leksik bo'shliqlarni to'ldirishda yetarlicha imkoniyatlar, tajribalar orttirish mumkin.

Nazariy asoslar

Tildagi leksik bo'shliqlarni aniqlash va to'ldirishda eng maqbul yondashuv tilning turli nutqiy shakllari (ko'rinishlari)ni leksik tahlil qilish va shu orqali tegishli bo'shliqlarni to'ldirishdir. Bunda, birinchi navbatda, turli nutqiy vaziyatlarda qo'llanilgan lug'aviy birliklarni to'plash (kartoteka tuzish) va ularning adabiy til leksikasining me'yoriy lug'ati (O'TIL)ga kiritilgan yoki kiritilmaganligini aniqlash lozim. Mazkur tahlilda ko'pgina so'zlarning adabiy til leksikasida mavjudligi qayd etiladi. Shundan so'ng adabiy til leksikasiga kiritilmagan so'zlar ustida saralash amali davom ettiriladi. Mazkur saralangan so'zlarning adabiy tildagi tegishli leksik bo'shliqning ifodachisi bo'la olishi yoki bo'la olmasligini baholash ishning eng mas'uliyatli va murakkab qismidir. Tahlil qilinadigan so'zlarning adabiy tilda muqobili (ma'nodoshi) bor-yo'qligini tekshirish keyingi bosqichda bajariladigan muhim vazifalardan biridir. Mazkur tekshiruv jarayonida tegishli tushunchaning adabiy tilda semantik usulda (muayyan so'zning biror sememasi sifatida) nomlanmaganligini ham jiddiy tekshirish lozim. Agar tahlil qilinayotgan so'zning ma'nosi biror ibora yoki tasviriyl ifoda bilan nomlangan bo'lsa, demak, uni leksik bo'shliqni to'ldiruvchi so'z sifatida baholash noo'rin. Keyingi bosqichda saralangan so'zlarning o'zbekcha (til ichki imkoniyatlari asosida shakllangan)ligiga, tegishli tushunchaning munosib nomi ekanligiga diqqat qaratiladi. "G'alvirlash" jarayonining so'nggi bosqichida saralangan so'zlarning ahamiyatlilik darajasi va adabiylashuv imkoniyatlari o'rganiladi. Ularning eng ahamiyatlilari va imkoniyatlilari tegishli leksik bo'shliqning to'ldiruvchisi sifatida adabiy til leksikasiga kiritish uchun tavsiya etiladi.

Adabiy tildagi leksik bo'shliqni to'ldirish mexanizmlarini ishlab chiqishda

til leksikasining muayyan davrdagi boyish jarayonlarini tahlil qilish orqali bu borada anchagina tajriba orttirish mumkin. Zero til leksikasini sun'iy tarzda boyitish yoki o'zgartirish osongina va individual tarzda amalga oshiriladigan ish emas. Til lug'at boyligida paydo bo'ladigan va adabiy tilda barqarorlashadigan har bir so'z birinchi galda muayyan lisoniy ehtiyoj natijasida shakllanishi, til egalarining aksariyati nutqiga qirib borishi talab qilinadi. Mazkur jarayonlarni ham obyektiv baholash va o'rganish tildagi leksik bo'shliqni to'ldirish metodologiyasini ishlab chiqishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Muayyan tushuncha yoki predmetni bilish jarayoni uning nominatsiyasi bilan bog'liq [1, 78]. Borliqda paydo bo'ladigan har bir predmet, tushuncha, avvalo, ongda akslanar ekan, albatta, unga munosib lisoniy ifoda topish, nomlash, izohlash, tavsiflash, tushuntirish ehtiyoji shakllanadi: "insondagi bilim doirasining muttasil ravishda kengayib turishi tilda bu jarayonlarning doimo yangi adabiy tilama (nom)lar bilan ifodalanib turishini talab qiladi" [3, 101]. Bunday vaziyatda inson yangi tushunchalarni nomlash uchun odatda ikki usuldan foydalanadi: 1) yangi tushunchaga yangi nom (so'z) berish; 2) yangi tushunchani unga o'xshash tushuncha nomi bilan metaforik nomlash. Aksariyat hollarda ikkinchi usul qo'llanadi. Chunki yangi so'z jamiyat a'zolari tomonidan osonlikcha tushunilmaydi [4, 120].

Natijalar

Ongda shakllanadigan yangi tushunchalarni nomlash til egasidan jiddiy lisoniy tajriba va idrok talab etishi shubhasiz. Nominatsiya jarayonida til egalari yangi so'z hosil qilishning turli usullaridan foydalanishi mumkin. Bizningcha, bu usullar tildagi leksik bo'shliqlarni to'ldirishda ham bimalol qo'llaniladi. Shu bois ayni maqsadga xizmat qildigan usullarni bilish, tavsiflash ham muayyan ahamiyatga ega. Umuman, tildagi leksik bo'shliqni to'ldirish usullarini quyidagicha tasniflash mumkin:

- 1) Leksik bo'shliqlarni so'zlashuvga xos so'zlar bilan to'ldirish;
- 2) Leksik bo'shliqlarni so'z yasash usullari yordamida to'ldirish;
- 3) Leksik bo'shliqlarni shevaga xos so'zlar bilan to'ldirish;

- 4) Leksik bo'shliqlarni tarixiy so'zlar bilan to'ldirish;
- 5) Leksik bo'shliqlarni potensial so'zlar bilan to'ldirish;
- 6) Leksik bo'shliqlarni okkozional so'zlar bilan to'ldirish.

1. Leksik bo'shliqlarni so'zlashuvga xos so'zlar bilan to'ldirish.

Barchaga ma'lumki, tilning asosiy funksiyasi va ahamiyati kundalik so'zlashuv nutqida namoyon bo'ladi. Xususan, so'zlashuv jarayonida tilning barcha imkoniyati va imkonsizligini kuzatish mumkin. Uning kamchiligi, yetishmovchiliklari ham, odatda, so'zlashuv jarayonida seziladi. Va vaqti kelib, aynan so'zlashuv jarayonida spontan tarzda bartaraf etiladi. Aniq ishonch bilan aytish mumkinki, tildagi leksik bo'shliqning to'ldirilish jarayonlari muayyan vaqt nuqtayi nazaridan tahlil qilinganda ham so'zlashuv jarayonlarida leksik bo'shliqning to'ldirilishi boshqa usul (va holat)lar bilan leksik bo'shliqni to'ldirishga qaraganda ko'proq kuzatiladi. Buning asosiy sababi tilning eng ko'p iste'mol (qo'llanilish) jarayoni – muloqot kechimi kundalik so'zlashuv bilan bog'liqligidadir. So'zlashuvda qo'llaniladigan barcha birliklar muayyan lisoniy ehtiyoj natijasida shakllanadi. Qaysidir birlikni faqat so'zlashuvga xosligini ro'kach qilib uni adabiy til leksikasiga (lug'atlarga) kiritilmaslik shu nuqtayi nazardan biroz noxolisdek ko'rinadi. To'g'ri, adabiy til umumxalq tilidagi eng zarur va muhim tushunchalarni ifodalovchi birliklarni mujassamlashtirishga, optimallashtirishga asoslangan. Lekin, bizningcha, so'zlashuvda faol qo'llanuvchi, adabiy tilda o'zining muqobil varianti bo'lmagan birliklar albatta lug'atlardan joy olishi kerak.

Adabiy tildagi leksik bo'shliqning to'ldirishda adabiy til leksikasining so'zlashuvga xos so'zlarni qay darajada qamrab olganligini baholashga qaratilgan qiyosiy usuldan unumli foydalanish zarur. Bugungi kunda so'zlashuvda ommalashayotgan *kiydirmoq* (kishiga uning oldida turib yomon xususiyatni yopishtirmoq), *uxlatmoq* (laqillatib, aldab biror narsasidan ayirmoq), *yedirmoq* (gapni yoki aybni “taqmoq”) kabi birliklar aslida, adabiy til leksikasida o'z ifodachisi bo'lmaganligi bois vujudga kelgan. Bu kabi birliklarning adabiy tilda norma tarzida e'tirof etilishiga mone'lik qiladigan narsa bu birliklarning “yosh”

ekanligi, ayrim kishilar tomonidan tushunilmasligini vaj sifatida keltirish mumkin. Lekin mazkur birliklar ko'pchilik til egalari uchun tushunarli va ommalashayotgan so'zlardandir. Bu kabi birliklarni so'zlashuv jarayonlaridan izlab topish va ularning adabiy tildagi leksik bo'shliqlarni to'ldirish imkoniyatlarini asoslash bugungi kun tilshunosligining dolzarb vazifalaridan biridir.

So'zlashuv jarayonlarida qo'llaniluvchi bunday birliklarning til ichki imkoniyatlari asosida yaratilishi ko'proq uchraydi. Zero, mazkur birliklarning tez tushunilishi va ommalashishi uchun ham mazkur jihatlar muhim ahamiyatga ega. Bu esa o'sha so'zlarning ommalashuv va adabiy lashuv imkoniyatlarini baholashda ham muayyan darajada asqotadi.

2. Leksik bo'shliqlarni so'z yasash usullari yordamida to'ldirish. Til leksikasining boyishida, xususan, undagi leksik bo'shliqlarning to'ldirilishida so'z yasash imkoniyatlarining o'rni beqiyos. Til lug'at tarkibini tahlil qilish orqali ham mazkur fikrlarning to'g'riligiga ishonch hosil qilish mumkin. leksik bo'shliqni aniqlashda ham til leksikasidagi yasalma so'zlarni tahlil qilish usullaridan foydalanish mumkin. Xuddi shu kabi leksik bo'shliqlarni to'ldirishda ham mazkur aniqlash usuli natijalari va xulosalaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Zero muayyan muammoning aniqlanishi va o'rganilishida qo'llanilgan metod shu muammoning yechimida ham katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Chunonchi, *suvoqchi*, *sinchchi*, *nusxachi* kabi yasalma so'zlar [*biror narsa (yoki jarayon) oti*]+[*chi*] = [*shu narsa (jarayon)ni yaratuvchi, bajaruvchi shaxs oti*] qolipidan hosil qilingan birliklar sifatida tildagi tegishli leksik bo'shliqlarni to'ldirishda muayyan ahamiyat kasb etadi. Xususan, muayyan narsa (jarayon va b.)ni yaratuvchi, bajaruvchi, tashkil qiluvchi soha vakillarining kasbi (ishi, lavozimi, hunari va b.) adabiy tilda nomsiz bo'lsa, ushbu leksik bo'shliq yuqoridagi qolip asosida yasaladigan so'z bilan to'ldirish mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, so'z yasash tizimi orqali yangi so'z yasash leksik bo'shliqni to'ldirishda eng samarali usul sifatida universallik xususiyatiga ega. Shu usul yordamida yasalgan so'zlarning til egalariga tez tushunilishi va ommalashishi uning til leksikasida barqarorlashishida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ya'ni,

soʻz yasashda adabiy til leksikasida mavjud va hammaga tushunarli boʻlgan soʻzlarning soʻz yasash asosi sifatida tanlanishi, shuningdek, yasama qolip va yasovchining ham til egalariga maʼlumligi yasalmaning tez anglanishli va tushunishli boʻlishiga xizmat qiladi. adabiy tildagi leksik boʻshliqni toʻldirishda boshqa usullardan koʻra ayni shu usulning natijadorligi ham shu bilan tavsiflanadi.

Umuman, yangi “yasalma (yangi soʻz – A.H.) maʼnosi inson bilimi tajribasini obyektivlashtiradi, u yangi nominativ-onomasiologik birlik sifatida muayyan ehtiyoj “buyurtma” asosida paydo boʻladi” [8, 123]. Bu yasalmaning tegishli ehtiyojni qondirishda uning tushunishli boʻlishi katta ahamiyatga ega. Soʻz yasash imkoniyatlari YaSlarga ayni shu xususiyat – tushunarli boʻlish jihatlarini taqdim etadi. Bu esa soʻz yasash tizimining leksik boʻshliqlarni toʻldirishdagi lingvistik ahamiyatini oshiradi.

3. Leksik boʻshliqlarni shevaga xos soʻzlar bilan toʻldirish. Oʻzbek tili oʻzining koʻp shevaliligi bilan ajralib turuvchi tillardan biridir. Oʻzbek shevalarining turli-tumanligi ham adabiy tildagi leksik boʻshliqni toʻldirishda katta imkoniyatlar beradi. Xalq shevalaridagi soʻzlarning adabiy tilda muqobili bor-yoʻqligini tahlil qilish orqali koʻpgina leksik boʻshliqni toʻldiruvchi dialektal soʻzlarni aniqlash mumkin. Tilshunoslikda progressiv dialektizmlar deb adabiy tilaluvchi bunday birliklarni aksar tilshunoslar adabiy til lugʻatlariga kiritilishini yoqlaydi [2, 55]. Biroq adabiy til leksikasining barqarorligini saqlash uchun ham ularning aksariyati normativ lugʻatlarga kiritilmaydi. Aslida, tilda muayyan soʻz paydo boʻlishidanoq osonlikcha ommalashmaydi. Muayyan jamoaning lisoniy idroki va irodasiga bogʻliq tarzda yuzaga keluvchi soʻz, birinchi galda, dialektal norma darajasiga yetar ekan, bu xususiyat uning shu dialekt uchun muhim ahamiyatli ekanligini koʻrsatib (isbotlab) turadi. Bitta shevada (dialektda) uchraydigan soʻzning boshqa yondosh shevalarda ahamiyatsiz boʻlishi juda kam uchraydigan va asoslash mushkul boʻlgan holat. Bas, shunday ekan, muayyan dialektlarda tarqalgan va faol qoʻllaniluvchi bunday soʻzlarni kamida *shv.* (yoki *dial.*) pometasi bilan lugʻatlarga kiritish lozim.

Shuningdek, leksik bo'shliqni shevaga xos so'zlar bilan to'ldirishda boshqacha yondashuv ham qo'llanilishi mumkin. Bunda muayyan nomsiz tushuncha leksik bo'shliq ekanligi anglangach, shu tushuncha bilan bog'liq hayot tarziga ega bo'lgan va shu soha ancha yaxshi rivojlangan hududlarga borib, shu hudud shevasida mazkur tushunchaning qanday adabiy tilalishini tekshirish mumkin. Professor N.Mahmudovning fikricha, bu tarzda zarur so'zlarni topish ham adabiy til leksikasidagi leksik bo'shliqni to'ldirilishida ancha samarali usul hisoblanadi [4, 77].

Tilning muayyan shevasida, qatlamida paydo bo'lgan so'z ham, aslida, muayyan nutqiy ehtiyoj taqozosidan shakllangan bo'ladi. Bu so'zning dolzarblashuvi (relevantlashuvi, muhimlik kasb etishi) va adabiy til lug'at fondiga o'tishi, albatta, til egalarining lisoniy irodasiga bog'liq.

4. Leksik bo'shliqlarni tarixiy so'zlar bilan to'ldirish. Tilning tarixiy davrlariga xos bo'lgan va bugungi kunda nafaol tarzda uchraydigan yoki qo'llanilishdan butkul to'xtagan so'zlarni faollashtirish ham tildagi leksik bo'shliqlarni to'ldirishning bir usuli sifatida baholanadi.

Umuman, til leksikasining barqarorligi va yashovchanligi, asrlar davomida til egalariga xizmat qilishi unda qo'llaniladigan so'zlarning millat ahli uchun ahamiyatli tushunchalarni ifodalashiga bog'liq bo'ladi. Biror tushunchaning muayyan davrda ahamiyatsizlanishi yoki qo'llanishdan to'xtashi shu tushuncha (va yoki uning nomi)ning unutilishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, muayyan tushunchaga o'xshash boshqa yangi va muqobil tushunchaning maydonga kelishi hamda keng ommalashishi ham shu (eski) tushuncha nomining nafaollashishiga sabab bo'lishi mumkin [7, 69]. Zero, yangi yaratilgan narsa (yoki tushuncha)ning ancha qulay (yoki ommabop)ligi uning eski muqobil tushuncha o'rnini egallashiga imkoniyat beradi.

Millat hayotida muayyan tushunchaning uzoq davr qo'llanilmasligi shu tushuncha nomining ham eskirishiga, arxaiklashishiga sabab bo'ladi. Zero, til ajdodlardan avlodlarga bor va qo'llanilayotgan birliklari bilangina meros bo'lib qoladi. Qo'llanilishdan to'xtagan birliklar esa tarix qa'rida qolib ketishga,

unutilishga mahkum. Biroq tarixiy manbalarni o'rganish jarayonida ularni ham qayta jonlantirish, nutq jarayonlarida faollashtirib, ularga hayot bag'ishlash mumkin. Bu esa tilning diaxron va sinxron leksikasi mushtarakliginii ta'minlashda ham tegishlicha ahamiyatga ega bo'ladi.

5. Leksik bo'shliqning potensializmlar orqali to'ldirilishi.

Potensializmlar – “potensial so'zlar til qonuniyatlari va maromli qo'llanishlariga muvofiq tarzda, mahsuldor so'z yasash andozalari asosida yaratilgan, ehtiyoj tug'ilganda til lug'atiga o'tish imkoniyatiga ega bo'lgan yangi yasalmalardir: *tunko'ylak, oromkursi* (kreslo), *tagxona* (podval), *tizma* (servis) va b.” [9, 125].

Potensializmga berilgan ta'rifdan ham ko'rinib turibdiki, u tildagi leksik bo'shliqni to'ldirishda katta imkoniyatga ega bo'lgan birlik. Bir qarashda u leksik bo'shliqni to'ldirish uchun yasalgan so'z kabi tushunilishi mumkin. Ya'ni u leksik bo'shliq sifatida baholangan o'rin uchun tavsiya etilgan tegishli “so'z”ni ifoda etadi. Shu jihatdan u barqarorlashgan so'z va leksik bo'shliq o'rtasidagi oraliqni egallaydi. Boshqa birliklarga qaraganda, tegishli leksik bo'shliqni to'ldirishda potensializmlarning imkoniyatlari ancha yuqori. Aslida, potensializmlar ham til leksikasidagi bo'shliqlarni to'ldirish ehtiyojidan yuzaga kelgan. Tegishli leksik bo'shliqni to'ldirish uchun so'z yasash usullari orqali yasalib, adabiy til uchun tavsiya etiladigan birliklar ham, avvalo, potensializm maqomida bo'ladi. Ularning keyingi “istiqbol”i, albatta, ilmiy muhokamalar va olimlar xayrixohligiga, til egalarining lisoniy irodasiga bog'liq bo'ladi.

Umuman, tildagi leksik bo'shliqni to'ldirish uchun tavsiya etiladigan potensializmlarni lug'atlarga kiritish til leksikasining to'kislashuviga xizmat qiladi. Faqat mazkur jarayonda potensializm ifodalaydigan tushunchaning muhimlik va dolzarblik xususiyatlariga yetarlicha diqqat qaratish kerak.

Tildagi leksik bo'shliqlarni to'ldirishning yana bir ko'rinishi neologizmlardan foydalanishdir. Neologizm ham potensializmning bir ko'rinishi bo'lib, muayyan tarqalish imkoniyatlari jihatidan potensializmlardan ustuvorroq xususiyatlarga ega bo'ladi. Aslida, muayyan yangi tushunchaning nomi, odatda, yangi so'z sifatida neologizm deb yuritiladi. Aksar hollarda o'zga tildan kirib

kelgan zamonaviy tushuncha (narsa, predmet, hodisa, voqeylik va b.)lar tilda neologizm deb baholanadi. Ayni jarayonda neologizm o'zlashma so'z ko'rinishida bo'ladi. Lekin tilda paydo bo'layotgan yangi tushunchalar tilning ichki imkoniyatlari asosida nomlanganda ham uni neologizm deb baholash mumkin. Bunday neologizmlar nominatsion xususiyatlari bilan katta lisoniy qimmatga ega bo'ladi. Bu so'zlarning adabiy til birligi darajasiga chiqishi nisbatan tez sodir bo'ladi. Chunki til egalarga o'zlari uchun biroz tanish so'zni tushunish va eslab qolish osonroq hisoblanadi.

Fan va texnikaning ilg'or yutuqlari natijasi hisoblangan tushunchalar va ularning nomi – neologizmlar inson hayotiga shu darajada kirib boradiki, ularning nomsiz yashashi yoki til leksikasidan joy olmasligi nomumkin holatga aylanadi. Neologizmning o'ziga xos xususiyatlari leksema va leksik bo'shliq xususiyatlarining oralig'ida bo'ladi [8, 57]. Ya'ni neologizm tegishli yangi tushunchaning nomi va u adabiy til lug'atlariga kirish imkoniyatiga ega. Bu jihatlarni chuqurroq o'rganish va tahlil qilish leksik bo'shliqqa munosib boshqa so'zlarni adabiy tilda barqarorlashishi ehtimolini prognozlashda ham muayyan xulosalar bera oladi.

Umuman, neologizmning til leksikasida ertami-kechmi barqarorlashishi muqarrarlik nuqtayi nazaridan yangi yasalmalardan, okkozionalizmlardan, hatto potensializmlardan imkoniyatliroq hisoblanadi. Shu bois ularni paydo bo'lishi (shakllanishi) bilanoq nomlangan va tilda tez ommalashish imkoniyatiga ega bo'lgan leksik bo'shliq sifatida baholash mumkin. leksik bo'shliqlarning til egalari uchun ahamiyatli tushunchalarni qamrab olishini tavsiflashda ham neologizmlarning xususiyatlarini o'rganish muhim xulosalar beradi.

6. Leksik bo'shliqni okkozionalizmlar orqali to'ldirish. Leksik bo'shliq va okkozionalizm o'rtasidagi munosabatning aniqlanishi tilshunoslikka, xususan, leksikologiyaga oid tadqiqotlarda ko'pgina muammoli vaziyatlarni izohlash va hal qilishga imkoniyat beradi. Okkozionalizm muayyan tushunchaga individual tarzda qo'yilgan nom sifatida nomsiz tushunchalarning tilda (nutqda) nomlanish jarayonlarini kuzatish va baholashga imkoniyat yaratadi. Ularning "hayot"ini

kuzatib (o'rganib) leksik bo'shliqlarning nomlanish jarayonlarini, ularning tilda ommalashish va barqarorlashish holatlari haqida xulosalar chiqarish mumkin.

Okkozionalizm – “keng ma'noda til tizimida emas, til amaliyotida sodir bo'ladigan favqulodda qo'llanishlar, tasodifiy yasalar va birikishlardan iborat nutqiy hodisa” [9, 155]. Aslida, uning yuzaga kelishida til egasi bo'lgan shaxsning o'z nutqida ifodalanishi zarur bo'lgan tushunchani o'ziga xos tarzda nomlash (atash), subyektiv munosabatini qo'shib ifodalash omillari qorishiq namoyon bo'ladi.

Okkozionalizmning, odatda, badiiy uslubga xoslanganligi uning leksik bo'shliqni to'ldirish imtiyozlarini cheklovchi omil sifatida qaralishi mumkin. Ammo badiiy uslubga xoslanganlik semalari sustroq bo'lgan va tildagi tegishli leksik bo'shliqni nomlash imkoniyatiga ega bo'lgan okkozionalizmlar ham talaygina. Ulardan tildagi leksik bo'shliqlarni to'ldirishda unumli va maqsadli foydalanish mumkin.

Munozara

Adabiy tildagi leksik bo'shliqni to'ldirishning yuqorida ko'rib o'tilgan usullari bir-biridan muayyan farqlarga ega bo'lsa-da, mushtarak jihatlari ko'proq. Til ichidagi bo'shliqlarni to'ldirishda mazkur usullar yetarlicha imkoniyatga ega. Biroq har qanday leksik bo'shliqni to'ldirish va yangi so'zni tilda ommalashtirish oson emasligini anglagan holda bo'shliqlarning eng muhim va ahamiyatli (relevant) ekanligini obyektiv baholash va to'ldirish zaruratini asoslash hal qiluvchi ahamiyatga ega [11, 132]. Shuning uchun nutqning muayyan ko'rinishi (shakli)da muayyan lisoniy-nutqiy ehtiyoj natijasida shakllangan so'zni mazkur jarayonga jalb qilish ancha samarali hisoblanadi. Ayni shu yondashuv yordamida adabiy tildagi bo'shliqlarni to'ldirish bu boradagi ishlarning maqbul va ma'qul tarzda joriylanishiga xizmat qiladi. Negaki mazkur so'zlar til egalari tomonidan muayyan nutqiy (lisoniy) ehtiyoj natijasida yaratilgan. Shuningdek, mazkur so'zlarning tor doirada bo'lsa-da qo'llanilganligi tadqiqotchiga muayyan qulayliklar yaratadi.

Mazkur soʻzlarning til egalari (yoki muayyan ijodkor) tomonidan yaratilganligi ularni adabiy tildagi tegishli leksik boʻshliqni toʻldirish uchun tavsiya etishda ham qoʻl keladi (tavsiya etuvchining oʻzi tomonidan yaratilgan “soʻz” individual, subyektiv jihatlari bilan oʻzgaralar eʼtiroziga sabab boʻlishi mumkin).

Bundan xulosa qilish mumkinki, adabiy tildagi leksik boʻshliqni toʻldirishda tilning muayyan arealida, koʻrinishida (shevasida, qatlamida, adabiy va yozma manbalarida) uchraydigan birliklarni tahlilga tortish, ularning imkoniyatlarini baholash va shu asosda ommalashtirish va barqarorlashtirish uchun tavsiya etish yaxshi natija berishi mumkin.

Tildagi leksik boʻshliqni toʻldirishda nutq jarayonlarini oʻrganish zarur bilim va material toʻplashga imkoniyat beradi. Zero tilning barcha oʻzgarishlari, ehtiyojlari uning moddiy shakli – nutqda voqelanadi.

Nutqda shakllanadigan birliklarning tilda barqarorlashishi, yaʼni norma darajasiga chiqishi ancha vaqt va eʼtirof (qoʻllashga munosib deb baholanish) talab qiladi. Til leksikasiga kirib barqarorlashgan, yangi birliklar “hayot”ini tahlil qilish yangi soʻzning qanday qilib barqarorlashishi haqida muayyan tasavvurlar shakllanishiga xizmat qiladi.

Nutqda voqelanuvchi okkozionalizm, potensializm, neologizm kabilarning nutqda qoʻllanganligi va til egalarining muayyan qismiga maʼlum boʻlganligi ularning tilda ommalashishiga imkoniyat yaratadi. Shu oʻrinda taʼkidlash kerakki, yangi soʻzlar tilda mavjud boʻlgan soʻz oʻrniga kiritilsa va ularning adabiylashuviga lisoniy ehtiyoj boʻlmasa, bu soʻzning tilda barqarorlashishi qiyin kechadi. Mustaqillikning dastlabki yillaridagi lugʻatchilik islohotlari natijalarini kuzatib bunga amin boʻlish mumkin.

Til leksikasidagi muayyan boʻshliq leksik boʻshliq sifatida baholanar ekan, uning toʻldirilish zarurati anglangach, dastlab shu boʻshliqni toʻldirishga munosib soʻz soʻzlashuv nutqidan izlanishi kerak. Chunki soʻzlashuv nutqi ancha tabiiy va erkin sodir boʻluvchi nutq jarayoni boʻlib, yangi soʻz yaratish va qoʻllashda keng imkoniyatlarni oʻzida mujassamlashtirgan boʻladi. Shuningdek, soʻzlashuv nutqi

eng faol va ko'p qo'llaniluvchi nutq sifatida tildagi aksariyat o'zgarishlarning asosiy manbai va omili hisoblanadi.

Leksik bo'shliqqa munosib so'zning so'zlashuv nutqidan topilmasligi sabab bo'shliqni boshqa usullar bilan to'ldirishga harakat qilish mumkin. Barchaga ma'lumki, muayyan tushunchaning nomi shu tushuncha bilan ish ko'ruvchi ijtimoiy guruh va qatlamlarda uchrashi tabiiy [6, 120]. Shu bois leksik bo'shliqqa munosib so'zni tegishli tushuncha bilan ish ko'ruvchi sheva yoki kasb egalari nutqidan izlash ham yaxshi natija beradi.

Yuqoridagi usullar ish bermagan hollarda yozma manbalar, xususan, badiiy asarlarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Qaysidir ijodkor tomonidan tegishli tushunchani adabiy tilash uchun biror yangi so'z (okkozionalizm)ni qo'llangan bo'lishi mumkin. Izlanayotgan so'zning umuman, topilmasligi yoki topilmaning nomunosibligi tegishli tushunchani individual tarzda nomlash (YaS yaratish) vazifasini tadqiqotchining o'ziga yuklaydi. Mazkur jarayonda tadqiqotchi o'zbek tilining so'z yasash usullari (derivatsiya)dan o'rinli va to'g'ri foydalangan holda tegishli leksik bo'shliqni to'ldirishi mumkin. Mazkur usulda yangi so'z yasash ancha mas'uliyatli va mashaqqatli. Shu bois ham bunda tadqiqotchi leksik bo'shliqni metaforik nomlashga harakat qilishi mumkin. Bu, aslida, yaratilayotgan so'zning tez tushunishli va ommalashuvchan bo'lishiga yordam beradi. Biroq bu polisemiyaga yo'l ochadi. Eng to'g'ri va ma'quli leksik bo'shliqni oldingi usullar bilan, ya'ni so'zlashuv va shevaga xos so'zlar bilan bartaraf etishga intilish lozim. Bu esa adabiy tilning xalq tiliga yaqinlashuviga ham xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdushukurov B. O'zbek adabiy tili tarixi. – T.: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot-matbaa birlashmasi, 2020. – 172 b.

2. Жомонов Р. Ўзбек тилининг изоҳли луғати учун диалектизмлардан сўз танлаш принциплари ва уларнинг берилиши: Филол. фанлари номзоди... дис. – Т., 1991. – 203 б.
3. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Т.: “Mumtoz so‘z”, 2017. – 138 б.
4. Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Т., Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2012. – 77.
5. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1995, –128 б.
6. Носиров Ш. Ўзбек тилининг Қўқон шеваси. – Т.: Фан, 1980. – 176 б.
7. Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. –Т.: Ўқитувчи, 1978, – 167 б.
8. Совет даврида ўзбек адабий тилининг тараққиёти III томлик. 3-том (сўз ясалиши ва лексика). – Т., 1991. –150 б.
9. Тошалиева С. Ўзбек тилида оккозионал сўз ясалиши: Филол. фанлари номзоди... дис. – Т., 1998. – 165 б.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, т. 1. – Т.: "O'zbekiston nashriyoti", 2020, – Б. 386.
11. Ҳожиёв А. Ўзбек миллий адабий тилининг шаклланиши ва эски ўзбек адабий тилига муносабати // Ўзбек тили ва адабиёти, 1987. – №2. – Б. 5- 12.